

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PREKURSORLAR USTIDAN DAVLAT NAZORATI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR



KUTBITDINOV
G'iyosiddin Xusnidinovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat
qilish agentligi mas'ul xodimi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqola sintetik narkotiklarni tayyorlashda foydalaniladigan prekursorlar ustidan nazoratni kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan. Muallif bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida prekursorlar muomalasi ustidan nazorat sohasida saqlanib qolayotgan muammolarga to'xtalib, xorijiy davlatlar qonunchiligi qiyosiy tahlili asosida prekursorlar muomalasi ustidan qat'iy davlat nazoratini o'rnatish, ular bilan bog'liq barcha jarayonlarni real vaqt rejimida nazorat qilib borish, shuningdek, prekursorlar noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik choralari belgilash yo'nalishida takliflar ishlab chiqqan.

Kalit so'zlar: prekursorlar, sintetik narkotiklar, psixotrop moddalar, g'ayriqonuniy narkolaboratoriya, noqonuniy muomala, oldini olish, davlat nazorati, elektron nazorat, davlat komissiyasi, javobgarlik

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам усиления контроля над прекурсорами, используемыми при изготовлении синтетических наркотиков. Автор останавливается на проблемах, сохраняющихся сегодня в сфере контроля за оборотом прекурсоров в Республике Узбекистан, и на основе сравнительного анализа законодательства зарубежных стран разрабатывает предложения по установлению строгого государственного контроля за оборотом прекурсоров, мониторингу всех связанных с ними процессов в режиме реального времени, а также определению мер ответственности за их незаконный оборот.

Ключевые слова: прекурсоры, синтетические наркотики, психотропные вещества, незаконная нарколаторатория, незаконный оборот, предотвращение, государственный контроль, электронный контроль, государственная комиссия, ответственность.

Abstract. This article is devoted to the issues of strengthening control over precursors used in the manufacture of synthetic drugs. The author examines current challenges in the sphere of precursor trafficking control in the Republic of Uzbekistan. Based on a comparative analysis of foreign legislation, the author develops proposals for establishing strict state control over the circulation of precursors, monitoring all related processes in real-time, and defining liability measures for their illicit trafficking.

Keywords: precursors, synthetic drugs, psychotropic substances, illicit drug laboratory, illicit trafficking, prevention, state control, electronic control, state commission, liability.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi kunimizda giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi shakllari ham o'zgarib bormoqda. Aholi, ayniqsa, yoshlarimiz orasida iste'mol qilinishi oson hamda yashirishga qulay bo'lgan turli shakllardagi sintetik moddalarning tarqalishi kengayib borayotganligi har birimizni hushyorlikka undashi bilan birga, ushbu illatga

qarshi yanada qat'iyat bilan birgalikda kurashish har qachongidan ham zarurligini kun tartibiga olib chiqmoqda.

"Bugun aholi, ayniqsa, yoshlar orasida yangi sintetik narkotiklar, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar keng tarqalayotgani ham barchamizni chuqur tashvishga solishi tabiiy. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, dunyoda 300 milliondan ortiq odam giyoh-

vandlik moddalari ta'siriga tushib qolgan. Har yili 600 mingga yaqin inson ushbu illat qurboniga aylanmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida bunday xavf-xatar barcha davlatlar qatorida O'zbekistonni ham chetlab o'tayotgani yo'q [1].

Respublikamizda so'nggi yillarda narkotiklarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash ko'rsatkichi 2,5 barobar oshdi, musodara qilingan giyohvandlik vositalari 2 barobar, yo'q qilingan sintetik narkotiklar 7 barobar ko'paydi. 2025-yilda huquq-tartibot idoralari tomonidan 15 mingdan ziyod narkojinoyat fosh etildi, qariyb 3,5 tonna giyohvandlik vositalari, jumladan 120 kg sintetik narkotiklar yo'q qilindi, 14 ta yashirin narkolaboratoriya faoliyatiga chek qo'yildi [2].

Mavjud ma'lumotlar tahlili respublikamizda sintetik narkotiklarni g'ayriqonuniy narkolaboratoriyalarda prekursorlardan foydalangan holda ishlab chiqarilayotganligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida "prekursorlar" tushunchasiga prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar deb ta'rif berilgan [3].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida"gi 330-son qarorining 7-ilovasi bilan O'zbekiston Respublikasida muomalada bo'lishi cheklangan prekursorlar ro'yxati (IV ro'yxat) tasdiqlangan bo'lib, unga 29 ta prekursor kiritilgan [4].

Huquqni qo'llash amaliyoti tahlili respublikada prekursorlar muomalasi ustidan qat'iy davlat nazoratini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar saqlanib qolayotganligi ko'rsatmoqda. Jumladan, prekursorlar ro'yxatini zamon talablari asosida soddalashtirilgan tartibda tezkorlik bilan yangilab borish (to'ldirish) amaliyoti joriy etilmagan. Masalan, yangi sintetik narkotik ishlab chiqarishda ishlatish mumkin bo'lgan ayrim

kimyoviy moddalar (bromketon, serouglevod, fenilatseton va boshqalar) prekursorlarning amaldagi ro'yxatida mavjud emas. Ushbu ro'yxatni yangi turdagi va nomdagi prekursorlar bilan to'ldirish uchun Hukumatning ushbu ro'yxat tasdiqlangan qaroriga tegishli o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish zarur. Hammamizga ma'lumki, normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqilishidan to qabul qilinishigacha bo'lgan muddat ko'p vaqtni talab qiladi.

Jahonda 800 ga yaqin prekursor mavjudligini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu ro'yxatni soddalashtirilgan tartibda to'ldirish imkoniyatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, prekursorlarning ishlab chiqarilishidan (chetdan kirib kelishi yoki tranzit o'tishi ham) boshlab realizatsiya qilinishigacha (boshqa mahsulot ishlab chiqarishda foydalanish, sotish, saqlash, berish va boshq.) bo'lgan barcha jarayonlarni elektron nazorat qilish tizimi mavjud emas.

Fikrimizcha, respublikaga kirib kelayotgan yoki o'zimizda ishlab chiqariladigan, sanoat maqsadlarida foydalaniladigan barcha prekursorlar bilan bog'liq jarayonlarni real vaqt rejimida elektron nazorat qilish ularning sintetik narkotiklarni ishlab chiqarishda foydalanish uchun "qora bozor"ga chiqib ketishining oldini olishdagi eng samarali usul hisoblanadi.

Shuningdek, milliy qonunchiligimizda prekursorlarning qonunga xilof muomalasi uchun biror-bir javobgarlik belgilanmaganligi ularning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq qilmishni sodir etgan shaxslarning javobgarlikka tortilmay qolishiga va o'z harakatlarini davom ettirishlariga sabab bo'lmoqda.

Xorijiy davlatlar qonunchiligini qiyosiy tahlil qilganimizda, Rossiya Federatsiyasi (Jinoyat kodeksi 228.3 va 228.4-moddalar), Belarus (Jinoyat kodeksi 328 va 330-moddalar), Ukraina (Jinoyat kodeksi 311 va 320-moddalar), Moldova (Jinoyat kodeksi 217-2-moddasi), Ozarbayjon (Jinoyat kodeksi 234-moddasi), Tojikiston (Jinoyat kodeksi 202(1) va 206(1)-moddalar), Turkmaniston (Jinoyat kodeksi 327, 328 va 333-moddalar) va Qirg'iziston (Jinoyat kodeksi 284 va 289-moddalar) kabi davlatlarda prekursorlarning noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilanganligini ko'rishimiz mumkin [6].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, respublikamizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar noqonuniy muomalasining oldini olish maqsadida prekursorlar muomalasini qat'iy tartibga solish va nazorat qilish samaradorligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, prekursorlar muomalasi bilan bog'liq faoliyatni tartibga solish va uzluksiz nazoratini ta'minlashga qaratilgan alohida nizom loyihasini ishlab chiqish va uni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlash hamda unda quyidagi mexanizmlarni aniq belgilash lozim:

– ushbu yoʻnalishda davlat uzluksiz nazoratini taʼminlash choralari, Narkotiklar va oʻqotar qurollarni nazorat qilish agentligi, Sogʻliqni saqlash vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bojxona qoʻmitasi va boshqa vakolatli davlat organlarining aniq vazifalari;

– prekursorlarni respublika hududiga olib kirish (olib chiqish) va tranzit o'tkazish, ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, yo'q qilish va realizatsiya qilish (berish) tartiblari;

- prekursorlar muomalasi bilan tegishli litsenziya asosida shug'ullanuvchi subyektlarning faoliyatini monitoring qilish tartibi va ularning hisobdorligi.

Ikkinchidan, Giyohvandlik vositalarini nazorat qilish bo'yicha davlat komissiyasi qarori asosida prekursorlar ro'yxatini soddalashtirilgan tartibda tasdiqlash, to'ldirish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish amaliyotini yo'lga qo'yish.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-mayda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tarkibi tasdiqlangan [5].

Ushbu taklifimiz bo'yicha prekursorlar ro'y-xatini soddalashtirilgan tartibda tasdiqlash, to'ldirish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha mazkur Davlat komissiyasining qarori loyihasi ishlab chiqiladi, komissiya tarkibidagi

vazirlik va idoralar rahbarlari bilan kelishilgandan so'ng komissiya raisi – Bosh vazir tomonidan tasdiqlanadi.

Shuni alohida qayd etish joizki, avvalgi maqolalarimizda O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonunini yangi tahrirda qabul qilish taklifini bergan edik. Ishlab chiqiladigan loyihada ushbu yo'naltirishdagi mas'ul davlat organlari va tashkilotlar bilan birgalikda Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha Davlat komissiyasining vazifalarini qonun darajasida belgilashni maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, prekursorlarning noqonuniy muomalasi uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilash.

Bunda, prekursorlarning noqonuniy muomala bilan bog'liq qilmishlar uchun javobgarlikni belgilashga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish lozim. Jumladan:

a) ma'muriy javobgarlik belgilash:

- prekursorlarni o'tkazish maqsadini ko'z-lamay oz miqdorda noqonuniy tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish;

- prekursorlarni ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish;

b) jinoiy javobgarlik belgilash:

- prekursorlarni oʻtkazish maqsadini koʻzlab noqonuniy ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash, olish, saqlash, shuningdek, ularni noqonuniy oʻtkazish;

- prekursorlarni o'tkazish maqsadini ko'z-lamay noqonuniy tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar;

- prekursorlarni ishlab chiqarish yoki foydalanish qoidalarini buzish;

- prekursorlarni kontrabanda qilish.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi takliflarimizning amaliyotga tatbiq qilinishi prekursorlar muomalasi ustidan qat'iy va uzluksiz davlat nazorati o'rnatilishiga, sintetik narkotiklar ishlab chiqarish faoliyatiga barham berishga, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar noqonuniy muomalasining oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish" mavzusidagi xalqaro forum ishtirokchilariga Murojaati, 2019-yil 19-aprel // <https://president.uz/uz/lists/view/9118>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligining statistik ma'lumotlari.
3. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi 813-I-son qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/86044>.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida"gi 330-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/2815342#2815435>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-son farmoni. <https://lex.uz/docs/6912475>
6. Xorijiy davlatlar Jinoyat kodekslari:
 - https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/,
 - https://prg.kz/document/?doc_id=30414984&pos=410;107
 - https://prg.kz/document/?doc_id=30418109&pos=427;107
 - https://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923#pos=327;-59
 - https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420353#pos=348;-39
 - https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397325#pos=257;-59
 - https://prg.kz/document/?doc_id=31295286&pos=376;107
 - <https://cbd.minjust.gov.kg/3-38/edition/2087/ru>

